
QO'SHTEPA TUMANI IQTISODIYOTI RAQAMLARDA



Qo'shtepa tumani statistika bo'limining ma'lumotiga ko'ra joriy yilning 1 avgust holatiga tumanda 2 ming 200 ta korxonalar va tashkilot ro'yxatdan o'tgan bo'lib, shundan faoliyat ko'rsatayotganlari 1 ming 473 tani tashkil etadi. 199 korxonalar va tashkilotlar esa yangi tashkil etildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tahlil qilinganda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasida 105 ta, sanoatda 270 ta, qurilishda 76 ta, savdoda 533 ta, tashish va saqlashda 37 ta, yashash va ovqatlanishda 82 ta, axborot va aloqa sohasida 23 ta, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida 46 ta va boshqa sohalarda 301 ta korxonalar va tashkilot faoliyat ko'rsatmoqda.

Bundan tashqari tadbirkorlik sub'ektlarning tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha faoliyat yuritayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlari soni 936 ta, xususi korxonalar 146 ta, oilaviy korxonalar 141 tani tashkil etadi.

Tumanda chet el investitsiyasi ishtirokidagi faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 4 tani tashkil etgan bo'lsa, shundan ko'shma korxonalar soni 1 ta, xorijiy korxonalar soni esa 3 taga yetganini qayd etish mumkin.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2024-08-23 13:26:08